

## ERTAK YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHI NUTQINING AHAMIYATI

*Mardiyeva Farangiz,*

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti magistranti*

*farangizmardiyeva71@gmail.com*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida ertaklarning o'rni hamda bu jarayonda tarbiyachi nutqining pedagogik ahamiyati hamda nutq texnikasini rivojlantirish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* maktabgacha ta'lim, ertak, tafakkur, tarbiyachi nutqi, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, ifodali o'qish, so'z boyligi.

## ЗНАЧЕНИЕ РЕЧИ ВОСПИТАТЕЛЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ СКАЗОК

*Мардиева Фарангиз,*

*магистрантка Каттакурганского государственного*

*педагогического института*

*Аннотация.* В данной статье приведены сведения о роли сказки в развитии речи дошкольников, педагогическом значении речи воспитателя в этом процессе, методах развития речевых приемов.

*Ключевые слова:* дошкольное образование, сказка, мышление, речь воспитателя, педагогическое мастерство, культура речи, выразительное чтение, словарный запас.

## THE IMPORTANCE OF THE TEACHER'S SPEECH IN DEVELOPING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH FAIRY TALES

*Farangiz Mardiyeva,*

*Master's Student, Kattaqo'rg'on State Pedagogical Institute*

**Abstract.** *This article provides information about the role of fairy tales in the development of preschool children's speech, the pedagogical importance of the educator's speech in this process, and the methods of developing speech techniques.*

**Key words:** *preschool education, fairy tale, thinking, educator's speech, pedagogical skill, speech culture, expressive reading, vocabulary.*

**Kirish.** Keyingi yillarda ta'limning asosiy boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ayniqsa maktabgacha ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash masalasi davlat darajasida alohida e'tibor qaratilayotgan muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim tizimini rivojlantirish haqida shunday ta'kidlagan: "Farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishni izchil davom ettiramiz". Bu fikr maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarning intellektual va nutqiy rivojlanishiga katta e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish hamda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu strategiya doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrovini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqi shakllanishi va rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning so'z boyligi ortadi, fikrini ifodalash qobiliyati rivojlanadi hamda

muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning nutq rivojida atrof-muhit, oila va ta'lim muassasasidagi muhit muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun asosiy namuna hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o'qituvchi bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadi, o'quvchilar bilan ongli muloqotni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi avvalo nutq sirlarini, uning o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda ta'sir kuchini puxta bilishi kerak. Nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo'lishidir.

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgidir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga etadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq.

Tarbiyachining nutqi bolalarga bilim berish, ularni tarbiyalash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolalar kattalar nutqiga taqlid qilish orqali o'z nutqini shakllantiradi. Shu sababli tarbiyachining nutqi ravon, aniq, grammatik jihatdan to'g'ri va ifodali bo'lishi muhimdir. Pedagogik faoliyatda nutq madaniyati quyidagi xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi:

- ✓ nutqning aniqligi,
- ✓ ravonligi, mantiqiyli va ta'sirchanligi.

Agar tarbiyachi nutqi boy va ifodali bo'lsa, bolalar ham yangi so'zlarni tezroq o'zlashtiradi hamda o'z fikrini erkin ifodalashni o'rganadi. Bolalar nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyot, xususan ertaklar katta ahamiyatga ega. Ertaklar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, lug'at boyligini oshiradi, bolani tanqidiy fikrlashga undaydi va nutqiy faolligini rivojlantiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklardan keng foydalaniladi. Bolalar nutqini rivojlantirishda qisqa va mazmunli ertaklardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shunday ertaklardan biri – “Qarg'a bilan Tulki” ertagidir.

Ertak mazmuni qisqacha quyidagicha: qarg'a daraxt shoxida og'zida pishloq bilan o'tiradi. Tulki esa qarg'ani aldab pishloqni olishni o'ylaydi. U qarg'ani maqtay boshlaydi. Tulki qarg'aga uning ovozi juda chiroyli ekanligini aytib, qo'shiq aytishni so'raydi. Qarg'a tulkining gaplariga ishonib og'zini ochadi va pishloq erga tushib ketadi. Tulki esa pishloqni olib qochib ketadi.

Bu ertak bolalarga aldanish, maqtovga uchmaslik va ehtiyotkor bo'lish kabi axloqiy g'oyalarni o'rgatadi. Shu bilan birga ertakdagi dialoglar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi. Tarbiyachi ertakni bolalarga etkazishda nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Ertakni oddiy o'qib berish emas, balki ifodali, obrozlarga kirgan holatda, qahramonlarga qarab ovozni o'zgartirish (masalan, mehribon qahramon-muloyim ovozda, salbiy qahramon- biroz qo'polroq ohangda), pauza (to'xtalish) lardan to'g'ri foydalanish, so'zlarni aniq, ravon talaffuz qilishi muhim hisoblanadi.

Birinchi, tarbiyachi ertakni ifodali nutq bilan aytib berishi kerak. Masalan, tulkining gaplarini aytayotganda ovoz ohangi yumshoq va maqtov ohangida bo'lishi, qarg'aning nutqi esa boshqacha ohangda ifodalanishi kerak. Bu bolalarning ertakka bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ikkinchi, tarbiyachi mimika va imo-ishoralardan foydalanishi zarur. Bu usul bolalarning tasavvurini rivojlantiradi va voqeani yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Uchinchi, ertak davomida savol-javob usulidan foydalanish muhim hisoblanadi. Masalan, tarbiyachi bolalardan quyidagi savollarni so'rashi mumkin:

Tulki qarg'ani qanday usul bilan aldadi? Uning gaplarida qanday maqsad yashiringan edi?

Tulkining xatti harakatiga qanday baho berasiz? Bu to'g'rimi yoki noto'g'rimi?

Qarg'a qanday xato qildi?

Tulki nega aynan maqtov yo'lini tanladi deb o'ylaysiz?

Bunday savollar bolalarni fikrlashga undaydi, qolaversa ertakni tahlil qilishga, taqqoslashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Tarbiyachi ertak asosida turli pedagogik usullardan foydalanishi mumkin. Bu usullar bolalarning nutqini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Biz hozir bolalarni fikrlash doirasini kengaytirishda foydalanadigan bir necha usullarni ko'rib o'tamiz:

Birinchi usul – ertakni qayta hikoya qildirish. Tarbiyachi ertakni aytib bo'lgach, bolalardan voqeani o'z so'zlari bilan aytib berishni so'raydi. Bu bolalarning nutqini rivojlantiradi.

Ikkinchi usul – rolli o'yinlar tashkil etish. Bolalar qarg'a va tulki rollarini ijro etib, dialoglarni takrorlaydilar. Bu usul nutqni yanada ravon qiladi.

Uchinchi usul – rasm asosida hikoya tuzdirish. Tarbiyachi ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, bolalardan voqeani hikoya qilib berishni so'raydi.

Bu metodlar orqali bolalar yangi so'zlarni o'rganadi, gap tuzishni o'rganadi va nutqi ravonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davri bolaning nutqi shakllanishi va rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning so'z boyligi ortadi, fikrini ifodalash qobiliyati rivojlanadi hamda muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning nutq rivojida atrof-muhit, oila va ta'lim tashkilotidagi muhit muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun asosiy namuna hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonun. – Toshkent. sh., 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son Qarori.

2. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026” – Rasmiy nashr, – T.: Adolat nashriyoti.
3. Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam davlat o‘quv dasturi”. – Toshkent, 2022.
4. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – TDPU 2018 yil.
5. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.